Internet davrida adabiy til me‘yorining buzilishi

Toshboboyeva Iroda
Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti
Filologiya fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
114-guruh talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada internet davrida adabiy til me’yorlarining buzilishi masalasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Raqamli aloqa vositalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarda til birliklaridan me’yoridan chetga chiqib foydalanish holatlari keng tarqalayotgani aniqlanadi. Qisqartmalar, so‘zlashuvga xos ifodalar, xorijiy unsurlarning haddan tashqari qo‘llanishi hamda imlo va grammatik normalarning e’tibordan chetda qolishi adabiy til barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani asoslab beriladi.

Annotation: In this article, the issue of the violation of literary language norms in the Internet era is analyzed on a scientific basis. It is identified that the use of linguistic units beyond established norms has become widespread on digital communication tools, particularly on social networks and online platforms. The excessive use of abbreviations, colloquial expressions, and foreign elements, as well as the neglect of spelling and grammatical norms, is substantiated as having a negative impact on the stability of the literary language.

Аннотация: В данной статье на научной основе анализируется проблема нарушения норм литературного языка в эпоху интернета. Выявляется, что в цифровых средствах коммуникации, в частности в социальных сетях и на онлайн-платформах, широко распространено использование языковых единиц с отклонением от нормативных требований. Обосновывается, что чрезмерное употребление сокращений, разговорных выражений, иностранных элементов, а также игнорирование орфографических и грамматических норм оказывает негативное влияние на стабильность литературного языка.

Kalit so‘zlar: adabiy til me’yorlari, internet muhiti, raqamli muloqot, til madaniyati, imlo va grammatika, so‘zlashuv unsurlari, ijtimoiy tarmoqlar, lingvistik jarayon.

Keywords: literary language norms, Internet environment, digital communication, language culture, spelling and grammar, colloquial elements, social networks, linguistic processes.

Ключевые слова: нормы литературного языка, интернет-среда, цифровая коммуникация, культура речи, орфография и грамматика, разговорные элементы, социальные сети, лингвистические процессы.

Kirish qism: Adabiy til tushunchasi barcha uchun aniq, tushunarli ,ravon tartibda bo‘lib, grammatik va uslubiy jihatdan to‘g‘ri shakllangan bo‘ladi. Har bir tilning o‘z adabiy qismi bo‘lib, uning maxsus qoida va nizomlari bo‘ladi, masalan qo‘shimcha yoki so‘z qo‘llash bilan bog‘liq, imlo yoki talaffuz bilan bog'liq bo‘lgan xatolar, ayniqsa, argon, jargon, chetdan kirgan parazit so‘zlar uchramasligi lozim. Ammo hozirda, raqamli texnologiyalar rivojlanib borayotgan bir paytda imloviy jihatdan, mantiqiy jihatdan kamchiliklar kuzatilib bormoqda, ayniqsa yoshlar o‘rtasida ommaga aylanib borayotgan platformalardan ishlatish chog‘ida noo‘rin holatlar bo‘lishi tabiiy, buni esa tilga bo‘lgan hurmatsizlik deb qarash mumkin. Umumjahon bo‘ylab bir qancha saytlar rivojlangan, ularga telegram, Instagram, tik-tok, facebook kabilarni kiritish mumkin. Zamon talabi bo‘lgan ya‘ni insonlarni og‘irini yengil qilib berayotgan bunday platformalarni

ishlatish qoidasiga amal qilinmayotgan holatlar uchraydi. Natijada, tilda bir qancha o‘zgarishlar paydo bo‘ladi,sofligi, aniqligi va mantiqiyligiga putur yetishiga olib keladi.

Raqamli muhit ta‘sirida tilda yuz bergan muammolar xilma-xildir. Birinchisi qilib imlo va punktuatsiya qoidalariga bepisandlik deb keltirish maqsadga muvofiqdir, negaki bu eng keng tarqalgan muammolardan bo‘lib, foydalanuvchilar vaqtni tejab, fikrni tezroq tinglovchiga yetkazib berish maqsadida xabarlashuv jarayonida so‘zlarni qisqartirib yozadi va bu odatlanib qolingan xato hisoblanadi. Harf tushurib qoldirish holatlari,masalan boraman so‘zini boramn tartibda yoki kelingni keng tarzida qo‘llash hodisasi mavjud. Bundan tashqari, tinish belgisining unutilishi, vergul, so‘roq, nuqta kabilardan foydalanmasligi natijasida gap mazmunida tushunarsizlik holatlari kuzatilishi mumkin.O‘zbek tiliga davlat tili maqomi 1989-yil 21-oktabrda berilib barcha kundalik qo‘lyozmalar, qonun va ish qog‘ozlari lotin tilida yozila boshlangan, buning sababi O‘zbekiston mustaqil davlat bolishi arafasida edi, shuning uchun o‘z ona tili bo‘lishi kerak edi. ‘‘“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.”[1] Shuningdek, unda boshqa millat va elat tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratilishi haqida ham aytilgan Ammo xalq hanuzgacha oldingi til bo‘lgan krill alifbosidan yozuvda ishlatish holatlari , ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda keng avj olgan. Bir so‘zning yarmi lotin tilida bo‘lsa yarmi esa krill alifbosida qo‘llanilish holatlari uchraydi. Darhaqiqat, bu to‘g‘rida tegishli tartibda yechimlar topilayotgan bo‘lsada, masalan, Bilimlarni baholash agentligi tomonidan tuzilgan testlarni ishlash , topshiriqlarni bajarish vaqtida faqat o‘zbek (lotin) tilidan foydalanish lozimligi, agarda talabgor bu tartibni buzsa, uning javoblari tekshirilmay, natijasi aniqmasligi holatlari bo‘lishi ijobiy, ammo bu yetarlicha yechim bo‘la olmaydi. E‘tiborni ko‘proq internet sahifalaridagi kuzatilayotgan muammolarga qaratish manfaatli.

Til faqat insonga va insoniyatga xos tabiat tomonidan ato qilingan buyuk ehsondir. Ana shu buyuk ehson kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi bo‘lib,jamiyat uchun xizmat qiladi. Til faqat jamiyatda, odamlar jamoasi orasidagina mavjud, chunki til orqali insonlar o‘z fikrlarini bayon qiladilar, fikr almashadilar, gaplashadilar. Til doimiy to‘xtovsiz ravishda o‘zgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi hodisadir. Tilning taqdiri jamiyat taqdiri bilan jambarchas bog‘liqdir. Jamiyat yo‘q ekan til ham bo‘lmaydi va aksincha til bo‘lmasa jamiyatda rivojlanish ham yo‘q. Insoniyat uchun fikr almashish doimiy va hayotiy zaruratdir. Til jamiyatning asrlar davomidagi butun tarixi jarayonida shu jamiyatda yashovchi minglarcha avlodlar tomonidan yaratilgan bo‘lib , jamiyat va uning a‘zolari uchun baravar xizmat qiladi.[2] Shu bois har bir tilning o‘z adabiy tili yaratilinib, yillar mobaynida boyitiladi, o‘zgarishlar kiritiladi. Vaqt va zamon tanlaydi degan fikrni ilgari surish mumkin. Tilda muhim qonun-qoidalar mavjud, ayniqsa nutq so‘zlovchi, omma oldida o‘z fikrini, dunyoqarashini ko‘rsatib beruvchi belgi uning adabiy tilde gapirishi deb aytsa bo‘ladi. Bundan tashqari bejizga Hozirgi o‘zbek tili , eski o‘zbek tili degan tushunchalar yoritib , qayd qilinib o‘tilmaydi, millatning ko‘zgusi hisoblangan til natijasida ushbu hodisa amalga oshiriladi. Qadimgi davrdagi adabiy jarayonga ham bir qancha insonlar fikr bildirgan. Adabiy jarayon va so‘z san‘atkorlarining xususiyatlari haqidagi fikrlar tarix, tarixiy-esdalik va nasihatlarda ham uchraydi. Zahiriddin Muhammad Boburning ‘‘Boburnoma ‘‘, Zayniddin Muhammad Vosifiyning ‘‘Badoye’ ul-vaqoye ‘‘,Kaykovusning ‘‘Qobusnoma ‘‘, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning ‘‘Majma’ un-navodir ‘‘ asarlarini misol keltirish mumkin.[3] ‘‘Boburnoma‘‘da ‘‘Alisherbek vaziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she‘r aytubdurlar, hech kim ancha ko‘p va xo‘p aytqon emas, degan odilonava rostgo‘y xulosaga kelsak, ‘‘Qobusnoma ‘‘da, ‘‘Har xil narsa yozmoqchi bo‘lsang, o‘z fikring bilan yozg‘il, boshqalarning so‘zini

[1] constitution.gov.uz (Article 4 in the constitution)
[2] S.Rahimov, B.Umurqulov Hozirgi O‘zbek adabiy tili,Toshkent.2003.(B-11)
[3] Alisher Navoiy Hayrat ul-abror.T .G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti 1989, 21-bet

takrorlama ,agar boshqalarning so‘zini takrorlasang, ko‘ngling ochilmaydi, she‘r maydoni senga keng bo‘lmas va dastlabgi darajangda qolaverasan ‘‘[4].Ushbu fikrlarda va insonlarning o‘z asarlari tubida yoshlarni asosan, to‘g‘ri yo‘lga boshlash, axloq-odob tushunchalarini shakllantirish, tilni asrash va unga e‘tibor berish asosiy o‘rin egallaydi.

Internet tilining adabiy tilga ta‘siri. Internet tilining leksik xususiyatlari (yangi so‘zlar, neologizmlar, inglizcha, ruscha o‘zlashmalar.Internet yangi tushunchalarni olib kirgani sababli yangi so‘zlar ham paydo bo‘ldi.Ularga misol qilib bloger, vlogger, content, followers, onlayn, oflayn, strim, podcast, akkaunt, so‘zlarini keltirish mumkin. Bunday so‘zlar endi kirib kelgan davrda barcha uchun notanish, hech kim o‘z nutqida qo‘llamaydigan terminlar edi, ammo vaqt o‘tgan sari ya‘ni yaqin besh yilda barchaning nutqida mavjud bo‘lgan so‘zlarga aylandi.Zamonaviy tilshunos olimlar sirasiga kirgan Nurmonov va Mahmudov (2007)o‘zbek tilining leksik tizimida o‘zlashma so‘zlar (qarzlangan leksika) muhim ro‘l o‘ynashini aytib o‘tadi. Ular tarixiy jarayonlar davomida turli tillardan kirib kelgan terminlar tilning leksik boyligi va til funksiyarining kengayishiga xizmat qilganligini bildiradilar. Til birliklarining paydo bo‘lishini tushuntirihsda psixologik yo‘nalishlar vakillari psixologiyaning ‘‘assamilyatsiya ‘‘, ‘‘assotsiatsiya ‘‘, ‘‘appersepsiya ‘‘ kabi atamalarni foydalandi. Psixologik yo‘nalish tarafdorlari yuqoridagi sanab o‘tilgan psixologik atamalarga ko‘proq murojaat qilganliklaridan ko‘rinib turibdiki, ular asosan bevosita nutqiy jarayonga asosiy e‘tiborni qaratdilar.[5]Tadqiqotlar natijasi shuni tasdiqlaydiki, terminlar psixologiya yo‘nalishida muhim vazifani bajardi. Bir qancha davlatlar o‘rtasida hamkorlik aloqalarini shakkalntirdi. Masalan Shvetsariya, Rossiya va Hindiston mamlakatlari ushbu termindan bir xil tartibda foydalandi, bilimlarini bo‘lishdi, ammo ilmiy atama bo‘lganligi bois, so‘zlashuv uslubida noaniqlik holatini chiqarib berdi, deyish mumkin. Termin va atamalar ilmiy tartibda, kitoblarda yutuqlarni keltirib chiqarishi mumkin, ammo so’zlashuv uslubida adabiy til meyorini buzuvchi omil sifatida ko‘rishadi.

Ommaviy axborot vositalarini til va madaniyatga salbiy ta‘siri.Til va madaniyatni xarakterlovchi belgilarining o‘xshashligi ularning munosabatini yagona metodologik asosda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bu umumiy belgilar quyidagilar:

1.Madaniyat va til- bu insoniyatning va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllari.

2.Til va madaniyat asosiy muloqotda mavjuddir, chunki nutq subyekti va uni tinglovchi – bu har doim madaniyat subyektlaridir.

3. Ikkala fenomen individual yoki umumiy mavjudlik shakllariga ega, madaniyat va tilning subyekti – har doim individ yoki sistium, shaxs yoki jamiyat.

4.Til va madaniyat uchun umumiy bo‘lgan jihat- normativlik.

5.Istorizm- til va madaniyatning eng mohiyatli xususiyatlaridan biri.(antinomiya ‘‘dinamika” yoki “statika”).

6.Madaniyat xalqning o‘ziga xos tarixiy xotirasi.Til o‘zining komulyativ vazifasi tufayli kollektiv xotirani saqlaydi va boyitadi.

Olamning ikkita modeli –konseptual hamda til modellarini o‘zaro bog‘liqligini qayd qilib, Yu.S.Stepanov ularni o‘zaro chalkashtirib qo‘yishdan ogohlantiradi: “Til modelini madaniyatning predmeti sohasiga, va aksincha, madaniyat modelini tilning predmeti sohasiga

[4] ‘‘Qobusnoma ‘‘, T.O‘qituvchi ‘‘,1968,B-99
[5] Abdulhamid Nurmonov . Tanlangan asarlar. 1-jild

ko‘chirib bo‘lmaydi”. Yu.S.Stepanov ham lingvistik nazariya uchun , ham madaniyat nazariyasi uchun qo‘llaniladigan alohida, ancha umumiy tushunchalar apparatini ishlab chiqarishga da‘vat etdi. Mana shu lingvomadaniyatshunoslikning terminologik, tushuncha asosini tashkil etdi. [6] Xar bir xalqning o‘z tili bo‘lganidek, madaniyati ham mavjud bo‘ladi. Ammo madaniyat tushunchasi yillar mobaynida yangi tusga kirishi, yoshlarni dunyoqarashi natijasida o‘zgarishlar sodir etishi mumkin. Ayni vaqtda, bir qancha ijtimoiy tarmoqlarda eng asosiy platforma Instagramda kontentlar yaratil obuna yig‘ish maqsadida noo‘rin so‘zlardan foydalanish holatlari kuzatilgan. Buning asosini esa yoshlarni nomaqbul videolarni olish evaziga ko‘proq daromadga ega bo‘lish hissi egallaydi. Ammo buning natijasida qanchalik dunyoqarashi va fikrlash doirasi past holatda ekanligini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birgalikda, til va madaniyat orasidagi uzviy bog‘liqlikka putur yetkazadi.

Zamonaviy muhitda tilda sodir bo‘ladigan semantik o‘zgarishlar. Internet tilining eng muhim leksik xususiyatlaridan biri - so‘z ma’nolarining o‘zgarishi, ya’ni semantik transformatsiyadir. Raqamli muhit ta’sirida ayrim so‘zlar o‘zining dastlabki lug‘aviy ma’nosidan tashqari yangi, ko‘chma yoki toraygan ma’noda qo‘llanmoqda. Bu jarayon til taraqqiyotining tabiiy qonuniyati bo‘lsa-da, internet orqali u ancha tezlashgan.Avvalo, ma’no kengayishi hodisasi kuzatiladi. Masalan, “do‘st” so‘zi an’anaviy ma’noda yaqin insonni anglatsa, ijtimoiy tarmoqlarda u oddiy kuzatuvchi yoki virtual aloqadagi shaxsni ham bildiradi. Shuningdek, “devor” so‘zi real qurilish elementi bo‘lsa, internetda profil sahifasini anglatadi. Bu yerda so‘zning metaforik ko‘chishi yuz bermoqda.Internet muhiti yangi semantik tus berilgan so‘zlarni ham yuzaga chiqardi. “Trend” so‘zi oddiy “yo‘nalish” ma’nosidan tashqari, ayni paytda ommalashgan mavzuni anglatadi. “Viral” so‘zi tibbiy termin bo‘lishiga qaramay, internetda tez tarqalgan kontent ma’nosini bildiradi. Bu jarayon semantik ko‘chishning zamonaviy ko‘rinishidir.Shuningdek, ayrim so‘zlar emotsional bo‘yoq kasb etmoqda. Masalan, “bomba”, “portladi” kabi so‘zlar asl ma’nosidan uzoqlashib, kuchli taassurot yoki mashhurlikni ifodalash uchun ishlatilmoqda. Bu esa so‘zlarning ekspressiv ma’noda qo‘llanishini kuchaytiradi. Internet tilida semantik o‘zgarishlar faol jarayon bo‘lib, so‘z ma’nolarining kengayishi, torayishi, metaforik ko‘chishi va emotsional tus olishi bilan namoyon bo‘ladi. Bu holat tilning boyishiga xizmat qilishi mumkin, biroq adabiy me’yor nuqtai nazaridan nazorat va ongli yondashuvni talab etadi. Til egalari so‘zlarning asl ma’nosini unutmagan holda yangi ma’nolarni to‘g‘ri qo‘llashi muhimdir.[7]

Raqamli muhit natijasida og‘zaki va yozma uslubda kuzatilayotgan muammolar. Internet va raqamli texnologiyalar rivoji natijasida og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi an’anaviy farqlar asta-sekin kamayib bormoqda. Ilgari yozma nutq aniq, grammatik jihatdan to‘g‘ri, mantiqan tartibli va me’yoriy shaklda bo‘lishi talab etilgan. Og‘zaki nutq esa erkin, emotsional va vaziyatga bog‘liq bo‘lgan. Hozirgi raqamli muloqotda esa bu ikki shaklning xususiyatlari bir-biriga aralashib ketmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda yozma shaklda bo‘lsa-da, og‘zaki nutqqa xos qisqalik, soddalik va spontanlik ustunlik qilmoqda. Odamlar xabar yozayotganda grammatik qurilishga emas, tezkorlikka e’tibor berishadi. Masalan, gaplar to‘liq tuzilmaydi, tinish belgilariga amal qilinmaydi, so‘zlar talaffuzga yaqin yoziladi. Bu holat yozma nutqning og‘zaki nutqqa yaqinlashayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, yozma matnda emotsional vositalar – emoji, undovlar, cho‘zib yozish (“zo‘rrrr”, “voyyyy”), bosh harflar orqali urg‘u berish kabi usullar ko‘paymoqda. Bular og‘zaki nutqdagi ohang va intonatsiya vazifasini bajaradi. Demak, yozma nutq og‘zaki nutq elementlarini o‘zlashtirmoqda.[8]Boshqa tomondan, ovozli xabarlar (voice message), podkastlar va video chiqishlar og‘zaki nutqni yozma muhitga olib kirdi.

[6] A.Mamatov.Zamonaviy lingvistika.2020.Toshkent”Tafakkur avlodi”B-72,73
[7] Sh.Rahmatullayev-O‘zbek tilining izohli lug‘ati(leksik semantic tahlillar uchun)Toshkent 2007.
[8] Nurmonov.A,Mahmudov.N O‘zbek tilining nazariy grammatikasi.-Toshkent:O‘qituvchi,2007

Odamlar rasmiy bo‘lmagan sharoitda ham yozib qoldiriladigan og‘zaki nutqdan foydalanmoqda. Bu esa og‘zaki nutqning ham ma’lum darajada rejalashtirilishiga olib kelmoqda.Natijada, internet davrida og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi qat’iy chegaralar zaiflashmoqda. Bu jarayon tabiiy til taraqqiyotining bir bosqichi hisoblanadi. Biroq adabiy til me’yorlari nuqtai nazaridan qaralganda, yozma nutqning haddan tashqari soddalashuvi savodxonlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Raqamli kommunikatsiya og‘zaki va yozma nutq o‘rtasida yangi, oraliq shaklni yuzaga keltirdi. Bu shakl tezkor, interaktiv va emotsional bo‘lsa-da, adabiy til me’yorlarini saqlash mas’uliyati har bir foydalanuvchi zimmasida qoladi.[9]

Adabiy til va sheva unsurlarining internetda aralashuvi. Internet muhiti tilning turli qatlamlarini bir maydonga olib chiqdi. Natijada adabiy til va sheva unsurlari o‘rtasidagi an’anaviy chegaralar sezilarli darajada zaiflashdi. Ilgari sheva ko‘proq og‘zaki muloqot doirasida qo‘llanilgan bo‘lsa, bugungi kunda u yozma internet nutqida ham faol ishlatilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar ko‘pincha o‘z hududiy nutq xususiyatlarini saqlagan holda yozadilar. Masalan, ayrim viloyatlarga xos fonetik yoki leksik birliklar yozma shaklda beriladi: “ketyapti” o‘rniga “ketvotti”, “bo‘lmaydi” o‘rniga “bo‘midi”, “qayerga” o‘rniga “qayoqqa” kabi. Bu holat yozma nutqning og‘zaki shaklga yaqinlashuvi bilan bog‘liq. Sheva unsurlarining internetda qo‘llanishi bir tomondan tabiiy jarayon hisoblanadi. Chunki til – tirik hodisa va u jamiyat bilan birga rivojlanadi. Internet esa keng muloqot maydoni bo‘lib, har kim o‘z nutqiy odatini bemalol namoyon etadi. Bu holat tilning rang-barangligini ko‘rsatadi va milliy koloritni saqlashga xizmat qilishi mumkin. Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham mavjud. Adabiy til umumxalq uchun tushunarli, me’yorlashgan aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Agar sheva unsurlari nazoratsiz ravishda yozma nutqqa kirib ketsa, adabiy me’yorlar buzilishi va savodxonlik darajasining pasayishi xavfi tug‘iladi. Ayniqsa, yoshlar orasida shevaga xos yozuv shakllarining keng tarqalishi adabiy til qoidalarining e’tibordan chetda qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, internetda ba’zan sheva unsurlari hazil, mem yoki stilistik vosita sifatida ataylab qo‘llanadi. Bu usul ekspressivlikni kuchaytiradi, matnga samimiylik bag‘ishlaydi. Demak, bu yerda sheva unsuri uslubiy maqsadga xizmat qilmoqda. Ammo rasmiy yoki ilmiy matnlarda bunday aralashuv maqsadga muvofiq emas. Internet muhitida adabiy til va sheva unsurlarining aralashuvi tabiiy, ammo murakkab jarayondir. U bir tomondan tilning jonliligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan adabiy me’yorlarni saqlash mas’uliyatini kuchaytiradi. Raqamli davrda har bir foydalanuvchi vaziyatga mos ravishda til vositalarini tanlay bilishi muhimdir.

Xulosa

Internet davri til hayotiga katta o‘zgarishlar olib kirdi. Raqamli muhit muloqotni tezlashtirdi, yangi so‘zlar va ifoda vositalarini yuzaga chiqardi. Shu bilan birga, adabiy til me’yorlariga bo‘lgan e’tibor ba’zi hollarda susayib borayotgani ham seziladi. Og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi chegaralar aralashib ketmoqda, sheva unsurlari va qisqartmalar keng qo‘llanmoqda, so‘z ma’nolarida semantik o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu jarayonni faqat salbiy yoki faqat ijobiy deb baholab bo‘lmaydi. Til doimo harakatda bo‘ladi, jamiyat bilan birga rivojlanadi. Internet ham shu rivojlanishning bir bosqichi xolos. Ammo har qanday yangilanish adabiy til me’yorlari hisobiga bo‘lmasligi kerak. Chunki adabiy til – bu millatning umumiy aloqa vositasi, ma’naviy boyligi va madaniy ko‘zgusidir. Shu sababli raqamli muhitdan foydalanar ekanmiz, vaziyatga qarab til vositalarini tanlay bilishimiz zarur. Norasmiy muloqotda erkinlik bo‘lishi mumkin, lekin ilmiy, rasmiy yoki ommaviy chiqishlarda adabiy til talablariga amal qilish muhim. Tilga e’tibor – bu shunchaki grammatik qoidalarga rioya qilish emas, balki milliy o‘zligimizga hurmat bilan qarashdir. Agar biz internetdan ongli va mas’uliyat bilan foydalansak, u tilni

[9] Hojiyev.A.O‘zbek tili leksikologiyasi va stilistikasi.-Toshkent

buzuvchi emas, aksincha, rivojlantiruvchi omilga aylanishi mumkin. Tilni asrash esa har birimizning shaxsiy mas’uliyatimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Mamatov.Zamonaviy lingvistika.2020.Toshkent”Tafakkur avlodi”B-167
2. Abdulhamid Nurmonov . Tanlangan asarlar. 1-jild

constitution.gov.uz (Article 4 in the constitution)

3. Hojiyev.A.O‘zbek tili leksikologiyasi va stilistikasi.-Toshkent
4. Qobusnoma ‘‘, T.O‘qituvchi ‘‘,1968,B-99
5. Sh.Rahmatullayev-O‘zbek tilining izohli lug‘ati(leksik semantic tahlillar uchun)Toshkent 2007.
6. Nurmonov.A,Mahmudov.N O‘zbek tilining nazariy grammatikasi.-Toshkent:O‘qituvchi,2007